



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 26-iyul

368-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-iyuldagi PF–98-son Farmoni ijrosi haqida” 334-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.**

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-iyuldagi PF–98-son Farmoni ijrosi haqida” 334-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-iyuldagi PF–98-son Farmoni ijrosi haqida” 334-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-iyuldagi PF–98-son Farmoni bilan:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Maktabgacha ta’lim agentligi (keying o‘rinlarda - Agentlik) faoliyatini tugatish hamda Agentlikning tashkiliy tuzilmasidagi tashkilotlarni 1-ilovaga muvofiq vazirlik tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi zimmasiga quyidagi:

ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart- sharoitlar yaratish;

maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogic texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etish;

maktabgacha ta’limning o‘quv reja, dastur va o‘quv-metodik majmualarini takomillashtirish, ularning umumiy o‘rta ta’lim dasturlari bilan uzviylikini ta’minlash; davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta’lim bilan bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta’minlash;

nodavlat va davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularga qonunchilik hujjatlariga muvofiq subsidiya va kompensatsiyalar ajratish, berilayotgan davlat ko'magining samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan ta'sirchan nazoratni o'rnatish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ratsional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash;

sohada zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish va hujjatlar aylanmasini qisqartirish orqali maktabgacha ta'lim xizmatlari sifatini oshirish kabi qo'shimcha funksiyalarni bajarish yuklatilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Ermirzayev) tegishli korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-iyuldagi PF-98-son Farmoniga muvofiq ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi v.v.b**



**B.Muydinov**